

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:21 (67186)
2018-yil 21-may

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!



3-bet



O'ZBEK FUTBOLCHILARI - JAHON CHEMPIONI

Rossiyaning Moskva shahri mezbonligida o'tgan Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari o'rtasidagi Jahon chempionati nihoyasiga yetdi.

Quvonarlisi, 14-17 yoshlilar o'rtasida tashkil-lashtirilgan nufuzli musobaqada yosh charmto'p ustalarimiz ko'tarinki ruhda ishtirok etib, yakunda g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Jamshid Asadov shogirdlari finalgacha bo'lgan mashaqqatli yo'lda Pokiston, Rossiya, Nepal hamda Burundi terma jamoalarini ishonchli tarzda mag'lub etib, o'zlariga bildirilgan ishonchni to'la oqladi.

Final uchrashuvida o'zbekistonlik futbolchilar ikkinchi bor pokistonlik raqiblariga qarshi to'p surdi. Uchrashuvning asosiy vaqtida durang (1:1) natija qayd etilgach, hakam futbolchilarni penaltilarga taklif etdi. «Lotoreya» bahsida omad hamyurtlarimizga kulib boqdi.

– Musobaqa murosasiz tarzda o'tdi. Shunday bo'lsa-da, o'zbek futboli muxlislariga quvonch ulashganimizdan xursandmiz, – deydi terma jamoamiz a'zosi Jahongir Ochilov.

Jahon chempionlari 18-may kuni Toshkentdagi Islom Karimov nomidagi xalqaro aeroportda tantanali tarzda kutib olindi.

USHBU SONDA:

«MARD O'G'LO»
ORDENI KIMLARGA
BERILADI?

2-bet

«ONAJONIM
TABIIAT»
insholar va rasmlar
tanlovi

4-5-betlar

MILLIY
KINOLOGIYA
MARKAZI
HAQIDA NIMALARNI
BILASIZ?

7-bet

INSHO
(Voqeyiy hikoya)

8-bet

**Intilganga tole yor,
Ilm ol, yurma bekor!**

**Tong
yulduzi**

«MARD O'G'LO» ORDENI KIMLARGA BERILADI?

Prezidentimiz tomonidan jasur o'g'lonlar uchun «Mard o'g'lon» davlat mukofoti ta'sis etilgani meni behad quvontirdi.

Mazkur mukofot endilikda o'qishdagi muvaffaqiyatlari, ijtimoiy faolligi, iste'dodi bilan tengdoshlariga o'mak bo'lib kelayotgan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigitlarga turli yo'nalishlarda topshiriladi. Shuningdek, orden harbiy xizmat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda alohida erishgan yutuqlari uchun beriladi. Ushbu yuksak e'tirofga birinchilardan bo'lib sazovor bo'lgan navoiylik tengdoshimiz Ibrohim G'afforov haqida eshitib, unga



havasim keldi. Men ham bu mukofotga adabiyot yo'nalishida o'z nomzodimni qo'yishga qaror qildim. Har yili «Yoshlar kuni» munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirda orden munosib egalari topshiriladi.

Siz ham havas qiling, intiling, iqtidoringizni namoyon eting. Yurtimizda mard o'g'lonlar ko'payversin!

**Azizbek ABDUMALIKOV,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi 202-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi**

FAN OYLIGI - BILIM BOYLIGI


Yaqinda maktabimizda amaliy fanlar oyligi bo'lib o'tdi.

Oylik davomida chizmachilik, texnologiya, musiqa, tasviriy san'at kabi fanlardan turli bellashuvlar o'tkazildi. «Mohir qo'llar» mavzusidagi tadbirda o'qituvchimiz Zebo Tashanova tashabbuskorlik ko'rsatib, munosib taqdirlandi. Shuningdek, «Yuksak ma'naviyatli avlod» festivalining tuman bosqichida 8-«A», 8-«B» sinf o'quvchilari Fotima va Zuhra Rahimova, Adiba Mo'minova faol ishtirok etishdi. Bunday tadbirlarning o'tkazilishi biz o'quvchilarning o'z iqtidorimizni namoyish etishimizga turtki bo'lmoqda.

**Naima ALIQULOVA,
Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi
32-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi**

TARG'IBOTCHI KITOBXON

Aziz tengdoshlar! Maktablarda «Targ'ibotchi kitobxon» vazifasini bajaruvchi o'quvchi saylab olinganidan xabaringiz bo'lsa kerak.



Bu yangilik bizni behad quvontirdi. Qolaversa, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan «Yosh kitobxon» ko'rik-tanlovining tashkil etilgani barchamizni kitobxonlikka chorlamoqda. G'oliblarning «Spark» avtomobili bilan taqdirlanishi esa kitobxonlik orqali katta orzularga erishish mumkinligining isboti bo'lsa, ajabmas!

Aslida, kitob kimdir yoki qandaydir tanlovda ishtirok etish uchun o'qilmaydi. Aksincha, ziyaraklik bilan qilingan mutolaa savodxonligimizni oshiradi.

«Kitob – bilim bulog'i,
O'quvchining o'rtog'i...»
Undan ko'payar aql,
Elda bordir bu naql.

Oshiq «Farhod va Shirin»,
O'qib anglayman sirin.
Kitoblar bilimga kon,
O'qib bo'lay, kitobxon!

**Sevarbek ELBOYEV,
Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
118-umumta'lim maktabining
7-«B» sinf o'quvchisi**



**O'zbekiston
yoshlar ittifoqining
Toshkent shahar, Shayxontohur
tuman bo'limi yoshlari «Faol
yoshlar maktabi» loyihasi
bo'yicha ish boshladi.**

YOSHLAR - KELAJAK BUNYODKORI

Hududdagi 20-umumta'lim maktabi «Faol maktab» sifatida tanlab olinib, boshqa umumta'lim maktablaridan iqtidorli 40 nafar o'quvchi saralanib, ularning iqtidoriga qarab 4 ta guruh tashkil etildi. Guruhlar ishini tashkil etishda ta'lim muassasasi rahbari, «Mehnat shuhrati» ordeni sohibasi Shahnoza Qosimova hamda Yoshlar ittifoqining tuman bo'limi raisi Javohir Arslonov bosh-qosh bo'lmoqda. Ushbu loyiha bo'yicha ta'lim muassasasida «Biznes klub», «Jasorat» yoshlar guruhi ish olib bormoqda. Ayniqsa, «Nuroniylar e'zozimizda» patronaj raqslari bilan nuroniylarimiz ko'ngillarini ko'tardi. Jumladan, 9-sinf o'quvchilaridan Samandar, Diyora, Iroda, Nazokat, Azizbek, Abdullo, Muhammadmirzolar keksalarimiz bilan miriqib suhbatlashdi, – dedi Maftunaxon.

Ha, chindan ham keksalarni qancha qadrlasak, ularga qancha e'zoz-ehtirom ko'rsatsak, oz.

Kuni kecha ular shahrimizning Olmazor tumanida joylashgan «Urush va mehnat faxriylari Respublika pansionati»ga tashrif buyurdi.

– Tashrifdan maqsadimiz, tengdoshlarimiz bilan birgalikda bu yerdagi otaxon va onaxonlarni biroz bo'lsa-da, ko'ngillarini ko'tarish. Yoshlarimizga ular bosib o'tgan umr yo'li, hayot tajribalarini ibrat qilib ko'rsatishdir. Guruhimiz a'zolari o'zlari tayyorlagan sahna ko'rinishlari, kuy-ko'shiqlari, she'rleri, ajoyib raqslari bilan nuroniylarimiz ko'ngillarini ko'tardi. Jumladan, 9-sinf o'quvchilaridan Samandar, Diyora, Iroda, Nazokat, Azizbek, Abdullo, Muhammadmirzolar keksalarimiz bilan miriqib suhbatlashdi, – dedi Maftunaxon.

Gulchehra KARIMOVA

MALIKABONU – KUMUSH MEDAL SOHIBASI

**Qo'qon shahar, 18-umumta'lim maktabi 9-«B» sinf o'quvchisi
Malikabonu Abdumannopova milliy-amaliy san'atning
kandakorlik yo'nalishiga mehr qo'yan.**



U joriy yil 16–21-aprel kunlari o'tkazilgan tasviriy va amaliy san'at festivali haftaligining kumush medal sohibasi.

Ushbu festivalda uning kandakorlik yo'nalishida tayyorlagan qo'l ishlari uchun maxsus diplom va medal topshirildi. Malikabonuning qo'lga kiritgan yutuqlari maktab o'quvchilari davrasida e'lon qilindi.

Iqtidorli qiz kelgusida ushbu hunari orqali yuqori cho'qqilarni zabt etishiga ishonamiz.

Nurbek QIDIRALIYEV

MARG'ILON NIHOLLARI

Yaqinda Toshkent shahrida «Bolalar musiqa va san'at maktablari ansambllari» Respublika ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi.

San'atga oshno o'g'il-qizlarimizning iste'dodlarini aniqlab bergan mazkur festivalda marg'ilonlik yoshlar ham faol ishtirok etdi. Shahrimizdagi 8-bolalar musiqa va san'at maktabining Diniyor Nurmatov rahbarligidagi «Marg'ilon nihollari» an'anaviy xonandalik ansambli 1-o'ringa sazovor bo'ldi. Shuningdek, ushbu maktabning Ilhom Rahmatullayev rahbarligidagi «Navosoz» an'anaviy cholg'u ansambli 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Bundan tashqari, poytaxtda bo'lib o'tgan «Iste'dod – II» xalqaro tanlovda an'anaviy xonandalik yo'nalishi bo'yicha iqtidorli qizimiz Roziya Komiljonova e'tirof etildi.

G'oliblar shahrimizga diplom va esdalik sovg'alari bilan qaytishar ekan, Marg'ilonda shunday yoshlarimiz borligidan faxrlandik.

Muhammadjon MAHMUDOV



Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi!

Kuni kecha
Respublika bolalar kutubxonasida
o'zbek adabiyotining yetuk vakillaridan biri,
akademik shoir G'afur G'ulomning 115 yilligi munosabati
bilan «O'zbek adabiyotining san'atkori» deb
nomlangan adabiy kecha bo'lib o'tdi.

– Biz o'quvchilar qalbida o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ulari hamda tinchlik, insonparvarlik kabi ezgu fazilatlarini kamol toptirishda otashqalb shoir G'afur G'ulom ijodining o'mi beqiyos, – deydi 97-umumta'lim maktabining 7-sinf

o'quvchisi Madina Subhonberdiyeva.
 Kecha davomida o'quvchilar adib asarlari asosida o'zlari tayyorlab kelgan sahna ko'rinishlari, musiqiy chiqishlarini barcha yig'ilganlarga namoyish etdi.
Jamoliddin ABDULLAYEV

Tadbirda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi o'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining ilmiy xodimlari, poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 63-, 97-umumta'lim maktablari o'quvchilari, ustozlar hamda OAV vakillari ishtirok etdi. Kechani o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'sib kelayotgan yosh avlodni shoir hayoti va ijodi bilan yaqindan tanishtirish, bu orqali ular qalbida ona Vatanga, adabiyotga bo'lgan muhabbat va sadoqat tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat.

Tadbirda so'z olgan adabiyotshunos olim Rahmatullo Barakayev G'afur G'ulomning hayoti va ijodidan qiziqarli

ma'lumotlarni keltirarkan, shoirning urush yillaridagi ijodining butun harorati fashist bosqinchilariga qarshi kurashgan xalqimizga, uning mardonavor g'alabasiga bag'ishlanganligini so'zladi.

Ijodkor o'sha olovli yillarda o'zining «Sen yetim emassan», «Oltin medal», «Kuzatish», «Vaqt», «Sog'inish» nomli mashhur she'rlarini bitgan. Ularda urush tufayli yetim qolgan bolalarga ko'rsatilgan insonparvarlik tuyg'ulari yuksak mahorat bilan tarannum etiladi. Adib o'z asarlari orqali insonlar qalbida urushga nisbatan nafrat hissini uyg'otadi, yoshlarni tinchlikni qadrlashga undaydi.



Lesson 21

A KIND GIRAFFE

Read the text and find only past tense.

One day, all animals of the forest laughed at the giraffe. They said «Your neck and legs are very, very long and clumsy». The giraffe was quite sad and he ran away. While he was running, he heard a strange voice. He stopped to find it. He sought, sought and found a pit near there. There was a little rabbit in the pit. She was trying to get free and she was yelling. Then the giraffe pushed his neck into the pit. He took the rabbit out of there. He saved her. After that nobody laughed at the giraffe. He was very happy!

Dilnoza AKROMOVA,
 the pupil of school №12 in
 Koshrabat district Samarkand
 region



Painter: Yoqubbek HALIMBEKOV

LEARN PROVERBS

Read the paraphrase and find suitable proverb.

1 Don't foretell the future too much	a Never look a gift horse in the mouth
2 Don't invest all effort in one thing	b Don't put all your eggs in one basket
3 Don't judge people by their appearance	c Don't count chickens before they are hatched
4 Don't refuse good fortune when it's there in front of you	d Never judge a book by its cover



Painter: Sumbula MELIMURODOVA

1-c, 2-..., 3-..., 4-...

Ma'mura G'ULOMOVA

EASY ENGLISH

Dear children, open your dictionary and write the answer and make up the sentences.

ENGLISH	UZBEK
Scissors	Qaychi
Sharp	Chuvalchang
Instead of	Behisob
Occupation	
Sweep	

1. Tailor women cut material with scissors.
2. —

M. G'ULOMOVA, Shahzoda RASHIDOVA,
 the English teacher of school № 299 in Shaykhontohur district

Types of nouns

There are several types of noun. They are common noun, proper noun, countable noun, uncountable noun, concrete noun, abstract noun, compound noun and collective noun. We use common noun when we speak name's people, places. For specific person, place or thing we use proper noun. If we can count the noun than we utilize countable noun. Can not be counted we use uncountable noun. Refer to people or things that exist you may use concrete noun. For abstract noun have no physical existence. Two or more words that create a compound noun. They can be written joined or separated form. Collective noun refers to a set or group of people, animals or things.

Exercise. 1. Read those words and write them in suitable columns

Common noun	Proper noun	Countable noun	Uncountable noun	Concrete noun	Abstract noun	Compound noun	Collective noun
city		cup					



Animal, food, bike, tree, apple, moon, city, son-in-law, football, blackberry bush, mobile phone, France, bunch of flower, cup, see, feel, soup, Mubina, snowdrop, dog.



Dinora ABDULLAJONOVA, Gulchehra SHOMALIKOVA

Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 50-modda.



Tong yulduzi

MEHR KO'RGAN DARAXTLAR

Go'zal tabiat, salqin havo, zilol suvlar kishi tanasiga tetiklik, shijoat bag'ishlaydi. Nazarimda, bunday qutlug' go'shaga bormagan, qishloqning saxiy odamlari bilan suhbatda bo'lmagan inson topilmasa kerak.

Bolaligimda men ham oilamiz bilan yurtimizning go'zal qishloqlaridan birida istiqomat qilganman. Bugun esa taqdir taqozosi bilan Andijon shahri markazidagi ko'p qavatli uylarda yashayapmiz. Yozgi ta'tilda tug'ilib o'sgan yurtimga borganimda, Abdulhay bobomdan ona tabiatni asrab-avaylash, unga mehr ko'rsatishni o'rganaman. Bobomning katta gilos bog'i bo'lib, ular daraxtlarni mehr bilan parvarishlaydi. U kishining aytishicha, daraxt va gullar ekib bog' yaratgan, tabiatga oshno bo'lgan insondan yomonlik chiqmas ekan. Ular bilan birga bog' aylanarkanmiz, har bir ko'chatni alohida parvarishlardik. Har gal gilos yeganimda, bobomning, «Egasidan mehr ko'rgan daraxtlar mevalarini ayamay, mo'l-ko'l hosil beradi», degan gaplarini eslayman. Ular sarxil mevalarni barchaga ulashib charchamaydi.

O'ylab ko'rsam, tabiatni bejizga onaga qiyoslamas, uning bag'ri onajonlarimizday mehr-muhabbatga to'la ekan.

Gulbahoroy YO'LDOSHEVA,
Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi
6-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

QANOTLI DO'STLARIMIZ

Qonunlarimizda belgilanganiday, biz har doim ona tabiatni ko'z qorachig'imizday asrab-avaylashimiz lozim. Bejizga sevimli gazetamizda ushbu yo'nalishda tanlov e'lon qilingan emas.

Biz bundan ilhomlangan holda maktabimizda ham ana shunday bellashuv o'tkazdik. Unda faol ishtirok etgan tengdoshlarim turli rasmlar chizishdi, qog'ozdan qushlar yasab, she'rlar aytishdi. Yakunda faol o'quvchilar maktabimiz rahbari G. Bayimbetova tomonidan munosib taqdirlandi.

Tanlovdan keyin o'quvchilarning tabiatga mehri yanada ortib, turli jamoat tadbirlarida ishtirok etmoqda. Kimdir qushlar uchun mo'jaz uychalar yasasa, yana bir guruh o'quvchilar yon-atrofni obodonlashtirmoqda.

Shunday ekan, keling tengdoshlar, barchamiz ona tabiatga oqilona munosabatda bo'laylik!

Saxibjamal KARAMATDINOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Kegeyli tumanidagi
11-umumta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi



KO'CHALARIMIZ GULZORGA AYLANSIN!

Viloyatimiz iqlim sharoiti jahon bozorida katta ehtiyoj, talabga ega bo'lgan qishloq xo'jalik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish uchun juda qulay. Zar tuprog'imizda poliz va sabzavot ekinlari, shirindan shakar mevalar mo'l hosil beradi.

Keyingi yillarda Jizzax agrar-industrial zonaga aylantirilmoqda. Natijada, viloyatimizda meva va sabzavotni qayta ishlovchi qator zavod va korxonalar ish boshladi. Ammo zavodlardan chiqayotgan zaharli gazlar havoning ifloslanishiga, turli allergik kasalliklarning kelib chiqishiga sababchi bo'ladi.

Bir kuni burun bitishidan shikoyat qilib, shifokor huzuriga bordim. Mutaxassis meni tekshiruvdan o'tkazayotib, uyimiz atrofida zavod bor-yo'qligini so'radi. Men unga yaqinimizda paxta titish sexi, mahallamizda esa to'qimachilik fabrikasi borligini aytdim. Shundan so'ng, shifokor kerakli tavsiyalarini berdi. Unga ko'ra, xonadonimiz atrofiga 20 tup archa ekib, gulzordagi rayhonlarni ko'paytirdik. Bu borada qo'shni dugonalarim ham faollikka chorlab, ko'chalarimizni gulzorga aylantirdik.

Mart, aprel oylarida esa shahrimizda toza havo oyligi o'tkazildi. Bu tadbirda avtomashinalardan chiqayotgan zararli tutun miqdorini aniqlash, chiqindilarni tozalash uchun hashar o'tkazildi. Unda men ham bobom bilan faol ishtirok etdim.

Yana bir masala. Viloyatimizda Amir Temur g'ori bor. Bu tarixiy maskan bilan tanishib o'tgan mehmon yo'lovchilar ba'zan turli ichimliklardan bo'shagan idishlarni yon-atrofga uloqtirib, xarsanglarga turli yozuvlarni yozib ketishadi. Bu ona tabiatimizga, tariximizga bo'lgan hurmatsizlik emasmi?!

Yaqinda sinfdosh dugonalarim bilan turli chiqindilarni yig'ib, qayta ishlash sexiga topshirdik. Tushgan daromadga hashar yo'li bilan o'quv dargohimizda yashil maydon bunyod etdik.

Xulosa qilib aytganda, barchamiz tabiatga mehr berish, uni asrab-avaylashimiz lozim.

Zebo JO'RAQULOVA,
Jizzax shahridagi 12-umumta'lim maktabining
3-«B» sinf o'quvchisi

TABIAT G'AMXO'RLIKNI QADRLAYDI

Qishlog'imiz katta magistrat yo'l yoqasida joylashgan. Janubda go'zal Hisor tog' tizmalari yastanib yotadi. Bu yerlarning bahorda lolaqizg'aldoqlarga burkanganini bir ko'rsangiz edi...

Viloyatimiz issiq mintaqada joylashgani bois, qushlar ham, eng avvalo, bizning vohadan uchib o'tadi. Shunday vaqtlarda osmonga qarab ona tabiat go'zalliklaridan bahra olaman. Uning beg'uborligini asrashni maqsad qilaman.

Dalalarga fermerlarimiz tomonidan bug'doy, arpa va zig'ir singari ekinlar ekiladi. Biz esa ota-onamizga hovliga ko'chatlar ekishda ko'maklashamiz. Men nilarni parvarishlashni yaxshi ko'raman. Ularning katta daraxtga aylanib, havoni tozalashini istayman. Qolaversa, issiq yoz kunlarida ularning soya-salqinidan va shirin mevalaridan bahramand bo'lamiz. Ko'rib turganingizday, ona tabiat qilgan g'amxo'rligimizni o'zimizga qaytaradi.

Tumanimizda tarixiy maskanlar talaygina. Ota-bobolarimiz ana shunday makonlarning yon-atrofini toza saqlash biz uchun ham qarz, ham farz ekanini uqtirishadi. «Langar ota», «O'g'lonjon ota» ziyoratgohlari, «Boburtepa» suv ombori, «Maydanak» observatoriyasi kabilar bizga g'urur bag'ishlaydi.

Maktabimizda ham ona tabiatni muhofazalashga katta e'tibor beriladi. Sinfarga ajratilgan yerlarga nihol, gullar va kurtoshka, no'xat kabi sabzavot ekinlari ekamiz. O'quv dargohimizda «Orasta sinf», «Gullar malikasi» tanlovi joriy etilgan. To'garakda esa ustozimiz Orol dengizining qurishi kabi global ekologik fojialar kelib chiqmasligi uchun hamisha tabiatni asrashimiz kerakligini uqtiradi. Shunda xayolimdan o'z Vatanimni sevgan farzand go'zal yurtining tabiatiga ozor berishga jur'at qilolmaydi, degan o'y o'tadi. Siz-chi, aziz do'stim, nahot o'z onangiz, Vataningizni asramoqni niyat qilmasangiz?!

Oysara TUFLIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi
18-umumta'lim maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi



SAYYOHLARNING HAVASI ORTADI

Yurtimiz kundan kunga chiroy ochmoqda. Har go'shada obodonchilik ishlari avj olgan.

Biz ham bu kabi yumushlarga o'z hissamizni qo'shib, tabiatga g'amxo'rlik qilmog'imiz lozim. Zero, borliqni asrasak, ozodalikka e'tibor qaratsak, avvalo, o'zimiz sog'lom turmush kechiramiz. Qolaversa, jannatmakon yurtimizga tashrif buyurgan mehmon-u sayyohlarning bizga havasi ortadi.

Afsuski, oramizda ko'cha-ko'ya qanday yurish, o'zini tutish kerakligini bilmaydigan odobsiz bolalar yo'q emas. Ular qo'llaridagi qog'oz-u bo'shagan suv idishlarni duch kelgan joyga uloqtirishadi. Kuni kecha shunday holatga o'zim ham guvoh bo'ldim. Maktabdan qaytayotganimizda, Mustafo ismli bola do'kondan saqich sotib oldi-yu, qog'ozini biroz naridagi axlat qutiga olib bormay, yerga tashladi. Shunda men unga noto'g'ri ish qilganini aytib, tanbeh berdim. U esa bundan to'g'ri xulosa chiqardi. Bir kuni «Ona yerning qo'ynida» nomli bayramga tayyorlanayotganimizda, u xonaga ukasi bilan kirib keldi. So'ng, qilgan ishidan afsuslanib, mendan uzr so'radi. Tengdoshimga tabiatni sevishini o'rgatganimdan mamnun bo'ldim.

Maftuna MAHMUDJONOVA,
Toshkent shahar, Olmazor tumanidagi
261-umumta'lim maktabining 9-«A»
sinf o'quvchisi

TABIAT»

rasmlar tanloviga

«Go'zal qishlog'im»



Jizzax viloyat ixtisoslashtirilgan
san'at maktab-internatining

8-«A» sinf o'quvchisi
Davronbek NORBOYEV

«Yaxshi dam – mehnatga hamdam»



7-«B» sinf o'quvchisi
Elchin SULAYMONOV

«Tabiatga bo'lsang do'st,
Yasharsan bekam-u ko'st»



Toshkent shahar, Olmazor
tumanidagi 25-Bolalar
musiq va san'at
maktabining

7-sinf o'quvchisi
Karina SHOKIROVA

«Hatto qurt ham ekologik toza
mevani tanlaydi»



5-sinf o'quvchisi
Shahina SUVONOVA

«Xazonlarni yoqmaylik!»



Navoiy viloyat
ixtisoslashtirilgan san'at
maktab-internatining
10-sinf o'quvchilari

Maftuna
ABDURAZZOQOVA

«Biz ham hissa
qo'shaylik»



Muxlisa
MAMADIYOROVA

OROLNI ASRANG



Zakiya QOSIMJONOVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumanidagi
23-Bolalar musiqa va
san'at maktabining 2-sinf
o'quvchisi

«Seni jondan sevamiz,
onajonim tabiat!»



Feruza
MADAMINJONOVA,
Farg'ona viloyati,
Beshariq
tumanidagi
3-DIUMning
7-sinf o'quvchisi

«Borliq mening nigohimda»



Sevinch HIKMATOVA,
Surxondaryo viloyati, Termiz shahridagi
3-umumta'lim maktabining
6-«V» sinf o'quvchisi

Bir o'lka bor dunyoda biroq,
Bitilmagan dostondur bori...

Tong
yulduzi

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati xodimlari! Biz gazetaning har bir sonini farzandlarim bilan mazza qilib o'qiyimiz. 2-sinfda tahsil olayotgan o'g'lim do'stlari bilan nashrga obuna bo'lishgan. Bo'sh vaqtlarimda maqola va she'rlar yozib turaman. O'z ijod namunalarimni sizlarga jo'natmoqdaman.

ONA QUYON

Och qoldi bir kun quyon,
Nima qilishga hayran.
Uychada uchta farzand,
Qorni och uchta dilband.

Bechora ona quyon,
Qaradi u yon-bu yon.
Ketdi savatin olib,
Katta yo'lga chiqvolib.



N. SHAVKATOVA chizgan rasm

Chakalakzordan oshdi,
Sabzizorga yo'l ochdi.
Sabzilarni quchdi u,
Uyi tomon uchdi u.

Sabzilarni yevolib,
Quyunchalar to'yishdi.
Onaning xizmatiga,
Tasannolar deyishdi.

Ko'rdingizmi, bolalar,
Onajonlar mehribon.
Gar shu mehr bo'lmasa,
Dunyo bo'lmasdi omon.

Feruza SOBIROVA,
Qoraqalpog'iston
Respublikasi, Xo'jayli
tumanidagi 1-umumta'lim
maktabining ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi



MUZQAYMOQ

Bolalar kelar to'p-to'p,
Muzqaymoqni yeydi ko'p.
Faqat shamollab qolma,
So'ng yotib ukol olma.

Yurgin sen shodon bo'lib,
Ham kuchli o'g'lon bo'lib.
Aslo uyalib qolma,
Muzqaymoqni ko'p olma.

Madina XALDAROVA,
Toshkent viloyati, Chinoz
tumanidagi 14-umumta'lim
maktabining 5-«A» sinf
o'quvchisi

SHOIR DILSHOD RAJAB, SHE'R AYTDI BIZGA ATAB

O'quvchilarimiz turli uchrashuvlar-u tadbirlarni yaxshi ko'rishadi. Ularning «Ustoz, yana shoir yoki yozuvchilar bilan uchrashuv tashkillashtiring, haligi darsligimizdagi bolalar shoiri bor-ku...», deya bildirgan takliflarini eshitganimda, sevinib ketaman. Bu safar ularning istaklaridan kelib chiqib, maktabimiz kutubxonachisi Vasila opa Saidova bilan birga o'quvchilarimizning sevimli shoiri Dilshod Rajab va Otabek Quvvatovni ta'lim dargohimizga taklif qildik.

Uchrashuvda shoirlar bolalarga atalgan quvnoq she'rlaridan o'qib,

qiziq voqealarni so'zlab berdi. So'ng, o'quvchilarimiz o'zlarini qiziqtirgan savollariga mehmonlardan ajoyib javoblarni tingladi. Tadbirda 7-«B» va 4-«D» sinf o'quvchilari jo'r bo'lib Dilshod Rajabning she'rlaridan ifodalai aytganida, shoir bolalarning iste'dodidan mamnun bo'ldi. So'ng, bolalarga yaxshi tilaklar bildirib, kitob o'qishga chaqirdi.

Malika ARIPJONOVA,
Toshkent shahar, Olmazor
tumanidagi 234-umumta'lim
maktabining ma'naviy-ma'rifiy
ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Bizning sinf

Sinfimiz ahil, inoq,
O'ttiz o'quvchi quvnoq.
Biz o'qib-o'rganamiz,
O'qishdan hech tolmaymiz.

Ustozimiz Mehribon,
Dars berar bizga har on.
Bilim berar betinim,
Har kuni u biz uchun.

Behruzbek QALANDAROV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
To'rtko'l tumanidagi 64-DIUMning
4-sinf o'quvchi

DARS MUQADDAS

Dars muqaddas biz uchun,
Har onidir g'animat.
Vaqtida bilim olsak,
Nafi tegar to' abad.

Ustoz izidan borib,
Dars qadriga yetamiz.
Cho'qqilarni egallab,
To'siqlardan o'tamiz.

Maftuna NOSIROVA,
Farg'ona viloyati, Beshariq
tumanidagi 21-umumta'lim
maktabining 8-sinf o'quvchisi

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Yurgan yo'lida tabiatga zarar yetkazadigan Jahongir ismli sho'x bola bo'lgan ekan. U ko'cha-ko'yda ko'zi tushgan gullarni uzib, daraxtlarning shoxlarini sindirarkan. Kattalar, «Unday qilma», deb nasihat qilsa ham sira quloq solmas ekan.

kerak. Insonlar endi g'uncha ochgan davrimda uzib oladi-yu, iforim tugagach tashlab yuborishadi, — deya ko'z yosh qilibdi atirgul. U yig'laganda marjondek shabnamlar yerga to'kilibdi.

— Nimasini aytasiz, — so'z boshlabdi lola. — Men ham bahor kelishi bilan insonlarga shodlik ulashgim keladi, biroq ayrim kishilarning shafqatsizligi sabab yildan yilga kamayib bormoqdami.

Bu so'zlarni tinglab, chinnigul ham: — O'tgan kuni bir bolakay ko'ra turib, ustimdan bosib o'tdi. Qanchalar azob chekkanimni tasavvur ham qila olmasiz. Barchamiz yer yuziga go'zallik baxsh etish uchun kelganmiz. Odamlarni changdan himoyalash uchun xizmat qilamiz. Biroq ular o'zlarining vaqtinchalik huzur-halovatlari uchun bizlarni qurbon qilishadi, — debdi.

Gullarning gaplarini tinglab, Jahongir qilmishidan qattiq pushaymon bo'libdi. Darrov nafis gullarga suv keltirib, ularni sug'oribdi. Bundan xursand bo'lgan gullar go'yo rahmat aytayotgandek, yaproqlarini silkitib, yanada gurkirab o'sa boshlabdi. Shu voqeadan keyin Jahongir ham bog'ga gullar ekib, ularni mehr bilan parvarishlaydigan bo'libdi.

Laylo ESONMURODOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi
5-umumta'lim maktabining
9-«A» sinf o'quvchisi




GULLAR SUHBATI

(Hikoya)

Bir kuni Jahongir ariq bo'yida kapalakni uchib yurganini ko'rib, uning ortidan quvibdi. Bu orada mahalladagi katta bog'ga qanday yetib kelganini ham bilmay qolibdi. Bog'dagi gullarning rang-barangligiga mahliyo bo'lib, kapalakni yo'qotib qo'yibdi. Shu payt allanimaningdir shivir-shiviri qulog'iga chalinibdi. U hayratlanib, maysalar orasiga qarasa, bog'dagi gullar o'zaro suhbatlashayotgan ekan. Avvaliga tush deb o'ylabdi, so'ng ularning gapiga asta quloq tutibdi:

— Oh, dugonajonlar, orangizda eng ko'p azob chekadigan men bo'lsam

— Necha kunlardan buyon, Uchmoqda, — deya, — ko'zim. Oyisiga shikoyat, Qilsa bir kuni qizim.



HOZIRJAVOB

Alisherni erkalab,
Buvijoni kulib der:
— Ertaga sen besh yoshga,
To'lasan-a, Alisher?!

Erkatoyim, men seni,
Juda yaxshi ko'raman.
Aqli bola bo'lsang,
Koptok olib beraman.

— Ha, — der Alisher, — erta Naq besh yoshga to'laman. Avval, koptok obering, So'ng, aqli bo'laman.

KO'ZNING UCHISHI

— Necha kunlardan buyon, Uchmoqda, — deya, — ko'zim. Oyisiga shikoyat, Qilsa bir kuni qizim. Buni eshitib qolib, Qarang, jajji Alisher: — Oyi, axir ko'zingiz Qushmidi, uchadi?! — der...



Zikrilla NE'MAT,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi, shoir

KITOBNI SEVING

Butun borliq, tabiat,
Sevgan kabi oftobni.
Bolajonlar, sizlar ham,
Seving aziz kitobni.

Kitob — sodiq do'st erur,
Xoh kunduz, xoh tundadir.
Bor tilsim-u jumboqlar,
Yechimi ham undadir.

Kitob bois qalbingiz,
Oy-yulduzdek porlagay.
U sizni ezguliklar —
Dunyosiga chorlagay.

Yaxshi ertak, hikoya,
Go'zal she'r-u dostonlar.
Ko'nglingizni yayratar,
Etib bog'-u bo'stonlar.

Kimki kitob o'qish-la,
O'tkazar gar vaqtini.
Hayotda u, albatta,
Topgaydir o'z baxtini.

Kitob do'st erur mudom,
Butun insoniyatga.
Uni sevib sizlar ham,
Yeting orzu, niyatga!

MILLIY KINOLOGIYA MARKAZI

HAQIDA NIMALARNI BILASIZ?

Poytaxtimizdagi Milliy kinologiya markazida Sergeli tuman hokimiyati, tuman Yoshlar ittifoqi hamkorligida tadbir o'tkazildi. Unda tumandagi umumta'lim maktablari, kasb-hunar kolleji va akademik litsey o'quvchilari, ustozlar, ota-onalar, soha xizmatchilari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etdi.

Bilamizki, barcha zamonlarda odamlar uchun tinchlik, osoyishtalik, xotirjamlik eng ulug' ne'mat bo'lib kelgan. XXI asrda esa uning qadri ortsa ortdiki, aslo kamaygani yo'q. Bugun Yaqin Sharq va Afrika mintaqalaridagi ayrim mamlakatlar, qolaver-

sa ovcharkasi (malinua), Osiyo ovcharkasi, Bigl, Labrador, Kutsixar, Rus spaneli, Ingliz kokker spaneli zotiga mansub xizmat itlari parvarishlanmoqda. Bir bosh itni xizmatga tayyorlash uchun kinologga 1 yil, mukammal tayyorlash uchun esa 2 yil vaqt kerak bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, kinologiya sohasi o'ta mashaqqatli va og'ir kasb hisoblanib, tilsiz jonivorlarni

larni ushlashda katta hissa qo'shib kelmoqda.

Agar qaysidir chegara postidan kinolog xodimlar olib tashlansa, o'sha joyda qonun buzilishi ko'p uchraydi. Ayniqsa, giyohvand moddalar va psixotrop moddalar harakati ortadi.

O'tkazilgan tadbirda soha mutaxassislari o'quvchilarga ushbu xizmatning ahamiyati, dolzarbligi xususida qimmatli ma'lumotlarni aytib o'tdi. Qolaversa, o'quvchilar o'zlarini qiziqirgan barcha savollarga kinologlardan atroflicha javob oldi. Ayniqsa, o'quvchilarga jangovar tayyorgarlikka ega askarlar hamda xizmat itlari ishtirokidagi ko'rgazmali chiqishlar manzur bo'ldi.



Abdurahmon TURSUNOV, Milliy kinologiya markazi direktori, polkovnik:

– Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada takomillashtirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Muassasamizda ma'muriy bino, xodimlar uchun mehmonxona shaklidagi yotoqxona, jismoniy va jangovar tayyorgarlik majmuasi, itlar bilan shug'ullanish uchun amaliy mashg'ulotlar maydoni, shuningdek, xizmat itlari pitomnigi, o'quv-uslubiyat va tahlil bo'limlari va veterinariya xizmati mavjud. O'tkazilgan tadbirda yig'it-qizlar markazimiz faoliyati bilan atroflicha tanishish imkoniga ega bo'ldi. Uchrashuvdan keyin ularning ko'pchiligida bu sohada xizmat qilish istagi paydo bo'lgan bo'lsa, ajab emas.

Shuningdek, tadbir doirasida kitob yarmarkasi tashkil etilib, unda o'quvchilar yurtimizdagi nashriyotlar tomonidan tayyorlangan bir-biridan qiziq kitoblarni xarid qildi.

– Men poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfida a'lo baholarga o'qiyman, – deydi Sardor Muhammadiev. – Kelajakda harbiy sohada yetuk mutaxassis bo'lib, ona Vatani sarhadlarini dushmanlardan qo'riqlayman. Buning uchun barcha fanlarni chuqur o'zlashtirib, sport bilan shug'ullanyapman.

Tadbir barcha o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Sa'dullo TURSINOV, Feruz MATYOQUBOV



sa, yon qo'shnimiz Afg'onistondagi notinch vaziyat barchamizni doimo ogoh bo'lib yashashga, atrofimizda kechayotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaslikka undaydi.

Ma'lumki, yurtimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan ilk yillardanoq milliy armiyamizni isloh etish, davlatimiz chegaralarini mustahkamlash, sohadagi kadrlar salohiyatini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi. O'tgan yillar davomida mazkur yo'nalishda asrlarga tatigulik ulkan o'zgarishlar amalga oshirildi. Quvonarlisi, bu ishlarga Respublika bojxona qo'mitasi Milliy kinologiya markazi kinologlari ham munosib hissa qo'shib kelmoqda.

Ushbu muassasa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 24-oktabrdagi «Milliy kinologiya markazini tashkil etish to'g'risida»gi Qarori bilan tashkil topgan. Ayni paytda markazda «Giyohvand moddalar qidirish», «Qurol-aslahalar va portlovchi moddalarni qidirish», «Aksilterror», «Iz-qidiruv xizmati», «Qidiruv-qutqaruv xizmati», «Himoya qorovul xizmati», «Mina qidiruv», «Valyuta qimmatliklarini qidirish» kabi sakkizta yo'nalish bo'yicha kinologlar o'qitilib, xizmat itlari tayyorlab kelinmoqda. Xizmat itlarini yo'nalishlarga tayyorlashdan oldin xarakteri va qobiliyatiga qarab tanlab olinadi va kichik inspektor kinologlarga birlashtiriladi. Bugun bu yerda Nemis ovcharkasi, Belgi-



Xizmat itlari mashg'ulotlaridan qiziqarli fotolavhalar.

yo'lga o'rgatish, ularda buyruqlarni so'zsiz bajarish ko'nikmasini shakllantirish katta mehnatni talab etadi. Kinologlar esa barcha qiyinchiliklarni yengib o'tib, tilsiz jonivorni tovush yoki ishora orqali istalgan holatga tez va aniq bo'ysunishga, boshqarishga o'rgatadi. Bu esa juda katta mahorat va tajriba natijasidir. Shu bois, soha xodimlarining mehnati tahsinga loyiq. Ular xizmat itlari bilan birgalikda yurtimizga noqonuniy kirib kelayotgan tovarlar, giyohvand moddalar, qurol-aslahalar va portlovchi moddalarni oldini olishda, jinoyatchi-



Bugun adabiyot o'qituvchimiz «Mening onam» mavzusida insho yozib kelishni tayinladi. Mavzu barchaga manzur bo'ldi. Axir onasi haqidagi diil so'zlarini oq qog'ozga tushirishni kim ham istamaydi, deysiz?! Men dugonam Sarvinoz bilan inshoni birga yozishga kelishib oldim. Sinfimizdagi a'lochi, odobli qizlardan. Sarvinoz bilan bir ko'chada turamiz.

Ertasi kuni dugonam biznikiga dars tayyorlagani keldi. Inshoni allaqachon yozib bo'lgan Sarvinoz menga daftarini bera turib, «Yozganlarimni hech kimga aytmagin», dedi. Men uning inshosini o'qib, juda qattiq ta'sirlandim...

«Mening onam bolalar bog'chasida tarbiyachi. Ishga barvaqt ketib, shomga yaqin qaytadi. Shunda ham barcha uy yumushlari-yu ukalarim bilan dars tayyorlashga ulguradi. Kecha onamning sochlarida uch-to'rtta oq to'lalarni ko'rib, yuragim achishdi. Endi o'ttiz beshga kirgan oyijonimning sochlariga nima uchun oq tushganini bilaman. Ular har kuni kechki ovqat vaqtida dadamni kutadi. Ammo dadam, mana ikki yildirki, bizdan faqat haftada bir xabar oladi. Uning boshqa oilasi borligini bilaman.

Onam kechalari unsiz yig'lashidan ham xabarim bor. Mening onamday sabrli, mehribon ayol dunyoda yagona. Uning dardiga malham bo'lishni juda istardim...»

INSHO



(Voqeyi hikoya)

Insholarimizni tashshirgan o'qituvchimiz men va yana bir-ikkita sinfdoshlarimning ishlarini o'qib berdi. Sarvinoz ham a'lo baho olgan bo'lsa-da, uning ishnosini o'qimadi. Ustoz dugonamning yoniga kelib, «Seniki hammanikidan ma'noli va hayotiy chiqibdi», deya shivirladi. Sarvinozning esa ko'zida yosh qalqidi.

Sarvina JO'RABOYEVA,
Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi 54-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

Har yili 18-may butun dunyoda xalqaro muzeylar kuni sifatida keng nishonlanadi. Bilsangiz, ayni paytda mamlakatimizda 100 dan ortiq muzey faoliyat yuritmoqda. Ushbu maskanlar yurtimiz tarixi, madaniyatini avloddan avlodga yetkazib beruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Keling, bugun sizlar bilan dunyo muzeylariga sayohat qilamiz.

Dunyodagi eng katta san'at muzeylaridan biri 1190-yili Qirol Filipp Avgust tomonidan Parijda qurilgan. Yillar o'tib, ushbu qasr tomosha qilish uchun ommaga havola qilingan. Ko'rgazmalar maydoni 60600 kv.mni tashkil etadi. Sayyohlarga muzeyda sayohat qilish qulay bo'lishi uchun 400 mingta eksponat alohida – qo'l mehnati, haykaltaroshlik va grafika bo'limlariga joylashtirilgan. Ushbu muzeyni bir hafta tomosha qilsangiz ham vaqtiniz yetmaydi.

Dunyodagi eng katta muzeylardan yana biri Vatikanda joylashgan. Unda 1400 ta zal, 50000 ta ko'rgazma ashyolari mavjud. Barcha eksponatlarni tomosha qilish uchun

7 km masofani bosib o'tishga to'g'ri keladi.

Los Anjelesga kelgan har bir mehmon ushbu muzeyga, albatta, tashrif buyuradi. Chunki bu muzey AQSHdagi eng ajoyib maskanlardan biri. U yerda

DUNYO MUZEYLARIGA SAYOHAT



sharsharaning yoqimli ovozi ostida Yevropa fotosuratichi va rassomlari tomonidan ishlangan suratlarini tomosha qilish mumkin.

Internet manbalari asosida Nigora ABDUNAZAROVA tayyorladi

FOYDALI MASLAHATLAR

Ko'katlar inson organizmini kerakli vitaminlar bilan to'yintiradi. Ammo ko'pchilik uning barraligini qanday saqlab qolishni bilmaydi.

Agar ko'katlarni sellofan xaltaga solib, muzlatgichda saqlab, ishlatishdan oldin tovada biroz qizdirib olsangiz, u yana o'z holiga qaytadi.

Un, makaron yoki guruch saqlanadigan idishlarga lavr yaprog'ini solib qo'ysangiz, unga turli hasharotlar tushmaydi.

Tuzdoningizdagi tuz qotib qolmasligi uchun unga uch-to'rt dona guruch qo'shib qo'ying.

Kechagi pishirilgan keksni yumshatish uchun uning ustiga ozroq suv sepib, qog'oz paketga soling va gaz pechiga biroz qo'ying. Shunda u yana yangi pishgandek bo'ladi.

Pishloqni tez qurib qolishdan saqlash uchun uning yuzasiga o'simlik yog'i yoki margarin surib qo'ying.

Bananlarni iste'mol qilmaguningizcha, uni bog'idan uzib olmang. Alohida-alohida bo'laklangan bananlar tez aynib, qorayib qoladi.

NARGIZA tayyorladi

Pazanda qizga!

LIKOPCHADAGI QUYOSH



Ayrim bolajonlarning kunduzi ovqatlanishga ishtahalari bo'lmaydi. Ana shunda onalar yordamga kelib, ularni qiziqitirib, kunduzgi nonushta inson uchun qanchalik ahamiyatli ekanini tushuntirishadi. Bugun sizlarga aksariyat bolalar «Likopchadagi quyosh» deb nomlaydigan shirin taomni tayyorlab ko'rishni tavsiya qilamiz.

Kerakli masalliqlar:

450–500 ml suv, 4–5 oshqoshiq makkajo'xori uni, ikki oshqoshiq sariyog', 1 oshqoshiq shakar, bir chimdim tuz. Bir oshqoshiq asal.

Tayyorlanishi:

chuqur idishda suv qaynatilib, olov pasaytiriladi va jo'xori uni solinib, yaxshilab aralashiriladi. Shu jarayonda shakar va biroz tuz qo'shiladi. Taom sariq rangga kirganda, sariyog' solinib, olovdan olinadi. Ta'bgga ko'ra taomga asal ham qo'shish mumkin.

Yoqimli ishtaha!

